



## SPECIFIC GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF RELIGIOUS AND PILGRIMAGE TOURISM

**Mashrab R. Usmanov**

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** tourism, religious tourism, pilgrimage, esoteric tourism, sacred tourism, places of pilgrimage, types of pilgrimage.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

**Abstract:** This article provides information on tourism, religious tourism, places of pilgrimage, holy places of pilgrimage, pilgrims, tour operators, pilgrimage tourism, esoteric tourism, sacred tourism and the main places of pilgrimage in the world.

## DINIY VA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

**Mashrab R. Usmanov**

Magistrant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** turizm, diniy turizm, ziyoratgoh, ezoterik turizm, sakral turizm, ziyorat qilish joylari, ziyorat turlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm, diniy turizm, ziyorat maskanlari, muqaddas ziyoratgohlar, ziyoratchilar, ekskursiyachilar, ziyorat turizmi, ezoterik turizm, sakral turizm va Jahondagi asosiy ziyorat qilish joylariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

## СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЛИГИОЗНО-ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

**Машираб Р. Усманов**

студент магистратуры

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** туризм, религиозный туризм, паломничество, эзотерический туризм, сакральный туризм, места паломничества, виды паломничества.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о туризме, религиозном туризме, местах паломничества, святых местах паломничества, паломниках, туроператорах, паломническом туризме, эзотерическом туризме, сакральном туризме и основных местах паломничества в мире.

---

**KIRISH**

O‘zbekistonda diniy turizm, ya’ni aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boyligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O‘zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko‘p. Ko‘pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta’miralanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G‘ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Mahdumi A’zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go‘zal ziyorat qiladigan va ma’naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ya’ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda diniy qadamjolariga davlat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo‘nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta’mirlashga jiddiy e’tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. musulmon dunyosini o‘ziga tortmoqda.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasizdir. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida o‘nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, Islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko‘tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya’ni viloyat yoki tuman miqiyosidagina bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh ob’ektlariga aylantirish mumkin. Shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo‘lib kelgan. Mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqalar hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e’tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma’naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## ASOSIY QISM

Turizm, davomli yashaydigan, ishlaydigan va muhim ehtiyojlarni qondiradigan joylardan tashqariga qilinadigan sayohatdir. Tunash vaqtinchalik zaruriy bir ehtiyojdir. Sayohatga chiqqan va tunab qolgan kishi, ma'lum bir vaqtdan so'ng o'zi yashaydigan joyga qaytadi.

Turizm rivojlanishining boshlang'ich bosqichidan buyon qo'l kelayotgan yondashuvlar borki, ular hozirgi kungacha o'z kuchini yo'qotmay kelmoqda. Shunday yondashuvlardan biri ziyoratgohli yondashuvdir. Haqiqatan ham diniy joylarni ziyorat qilish ham sayohatning bir turi bo'lib u JTT tomonidan "diniy turizm" deb tan olinib, "turizmning ushbu turi bilan shug'ullanadigan sayyohlar statistik ma'lumotlarda "ziyoratchilar" (sayohatga ehtiyoj faqat ma'lum dinga e'tiqod qilish natijasida paydo bo'lgan) va "ekskursiyachilar" (bilim oshirish maqsadida diniy ob'ektlarga tashrif buyurish) ga ajratiladi".

Hozirgi kunda ba'zan ziyorat turizmi, ziyorat ekskursiyasi kabi iboralarini eshitish mumkin. Bu iboralar ziyorat mazmunini tushunmaganlik va uni tashqi o'xshashligiga qarab turizm bilan yaqin deb bilish sababidan kelib chiqadi. Bunday qaraganda ziyorat ham, turizm ham sayohat mavzusi bilan bog'liq. Biroq o'xshashlik jihatlariga qaramay ular bir-biridan farq qiladi. Hatto bir xil joyni ziyorat qila turib, ziyoratchilar va turistlar buni har xil amalga oshiradilar.

Turizm - bu ma'rifiy maqsadlardagi sayohatdir. Turizmning ommaviy turlaridan biri esa diniy turizm hisoblanadi. Bu turizm turidagi asosiy narsa muqaddas joylar tarixi, avliyolar hayoti, arxitektura, diniy san'at bilan tanishish hisoblanadi. Bularning bari haqida turist uchun sayohatning eng asosiy elementi hisoblanadigan ekskursiyalarda hikoya qilib beriladi.

Ekskursiya o'z navbatida ziyoratning bir qismi ham bo'lishi mumkin. Faqat bu sayr dasturdagi asosiy va majburiy qismi emas, balki yordamchi qismi sanaladi. Ziyoratdagi asosiy amal bu duo qilish, diniy amal yoki xizmat etish va muqaddas joylarga sig'inishdir. Diniy ziyorat - e'tiqod qiluvchi kishi diniy hayotining bir qismi bo'lib, ziyorat qilish asnosida amallarni zohiriy bajarish emas, balki qalbdagi niyat, ma'naviy yangilanish va ozuqa olish asosiy narsa hisoblanadi.

Diniy turizm (sakral turizm, ziyorat turizm, ezoterik turizm) - o'zi uchun odatiy muhitdan tashqarida joylashgan muqaddas joylar va diniy markazlarga boradigan turistlarga xizmat ko'rsatish hamda ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq turizm turi hisoblanadi.

Diniy turizm bir necha turlarga bo'linadi:

1. Ziyorat turizmi – bu turli konfessiya vakillarining ziyorat qilish maqsadida sayohat qilishlari yig'indisidir;
2. Ezoterik turizmning maqsadi sayyohning an'anaviy diniy dunyoqarashni kengaytirish va shu maqsadda sayohat jarayonida falsafiy izlanish hamda o'zligini topish hisoblanadi;
3. Ekskursion-ma'rifiy yo'nalishdagi diniy turizm din tarixi bilan bog'liq joylarni ziyorat qilishdir;

4. Sakral turizmدا turist ma'lum bir joylarni ziyorat qilish vaqtida tasavvuridagi narigi olam bilan bog'liqlikni ta'kidlaydi yoki tiklaydi. Sakral keng ma'noda bu kundalik narsa, tushuncha va voqe'likdan farq qiladigan ilohiylik, yoga, samo, o'zga olam, irratsional, mistikaga aloqador barcha narsalardir.

Ziyorat lotinchada Palma – “palma” so'zidan olingan bo'lib, Quddus shahri aholisi Iso Masihni palma shoxalari bilan sharaflab, kutib olishgan. Jahondagi asosiy ziyorat qilish joylari quyidagilar sanaladi:

– **nasroniylarda:** Vifleem (Bayt Lahm), Ierusalim (Quddus), Nazaret (Nazzoriya), Iordan (Urdun) daryosi va Bibi Maryam hamda Iso payg'ambar bilan bog'liq boshqa joylar;

– **musulmonlarda:** Makka, Madina shaharlari ziyorati, Haj va Umra amallari;

– **lamaistlarda:** Tibetdagi Lxasa ziyorati;

– **hindularda:** Hindistondagi Ilohobod va Varanasi shaharlari ziyorati;

– **sintoistlarda:** Yaponiyadagi Nara ziyorati.

Ziyorat qilish sabablaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– ruhiy va jismoniy xastaliklardan shifo topish niyatida;

– yaqinlari va qarindoshlari haqqiga duo qilish;

– baraka topish;

– ilohiy amalni bajarish;

– gunohlarga mag'firat so'rash;

– yuqoridan ato etilgan saxovat uchun shukronalik keltirish;

– e'tiqodga sadoqatini namoyon etish;

– din yo'lida jonkuyarlikni namoyon etishga intilish;

– hayot mazmunini topish.

Ziyoratni rag'batlantirish uchun ko'pgina yo'riqnomalar, yo'l ko'rsatuvchi xaritalar (itinerariylar) tuzilgan. Ularning aksariyati va ziyorat qilish qoidalari keyinchalik muhim tarixiy manbalarga aylangan.

Turizmda odatda bir necha ziyorat turlarini ajratib, ularni turli belgilariga qarab tasniflaydilar:

1). Ishtirokchilar soni va oilaviyligi bo'yicha – individual, oilaviy va guruh ziyoratlar;

2). Davomiyligiga ko'ra – uzoq va qisqa muddatli ziyoratlar;

3). Mavsumiyligiga ko'ra – yil davomida, diniy bayramlarga bag'ishlangan ziyoratlar;

4) Ziyorat ob'ektlari bo'yicha – konfessional kult (diniy) joylarini: maqbara, monastir, ibodatxona va h.k., shuningdek tabiiy kult joylarni: tog', ko'l, g'or, buloq va h.k.ni ziyorat qilish;

5) Ziyorat ob'ektlarining joylashganligiga ko'ra – ichki (davlat chegaralari ichida) va xorijiy ziyorat turlari;

6) Majburiylikiga ko'ra – ixtiyoriy va majburiy ziyorat turlari. Masalan, Haj farz bo'lganligi sababli boy musulmonlar uchun majburiy hisoblanadi.

Hozirgi kunda yana bir eng jozibador turizm turi kombinatsiyalashgan ziyorat va diniy turlar hisoblanadi. Uning asosiy va yorqin xususiyati o'ziga xos tarzda zamonaviy davlatlar chegarasidan chiqish sanaladi. Ko'pincha aniq va ma'naviy yuksalish niyatida ziyorat qilish maqsadidagi sayohat umumiy o'tmish va yagona tarix bilan bog'liq mamlakatlar hududida amalga oshiriladi. Unda bu sayohat o'zaro bog'liq voqea-hodisalar va diniy shaxslarga bag'ishlangan bo'ladi.

Shuning uchun bir nechta muqaddas joylarni ziyorat qilishni birlashtiradigan kombinatsiyalashgan turni tashkil etishda asosiy e'tibor dasturning tarkibiy qismi sanaladi. Bunday turlardagi asosiy narsa ziyoratchi boradigan mamlakatlar soni emas, balki aynan ma'naviy unsur hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, doimo odamlarning u yoki bu joy nega borishi va u yoki bu turni tanlashini aniq tushunish zarur.

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizdagi mavjud ziyoratgohlarni ta'mirlab, qayta tiklash zarur. Shu bilan birga diniy turlar dasturini yaratib, turistlarga taklif qilib, jalb etish lozim. Zero, samarali mehnat qilish va intilish orqali turizm sohasida yuqori natijalarga erishish mumkin. Shunda O'zbekistonning keng sayyohlik imkoniyatlari, betakror va go'zal tabiati, xalqimizning mehmondo'stligi, saxovatpeshaligi hamda bag'rikengligi sayyohlarni maftun etib, ularning xotirasi va qalbida o'chmas taassurot qoldiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.
2. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
3. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
4. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
5. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.

6. Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
7. Холикулов, Ш., & Мавлонова, С. (2020). Ўзбекистонда туристик имкониятлардан фойдаланишнинг географик жихатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
8. Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда “диний туризм” нинг аҳамияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
9. <https://stat.uz>